Sifatli ta’lim – yorqin kelajak


TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ILMIY XABARNOMA

ISSN: 3060-4761

ILMIY JURNAL

№ 2 (06) IYUN 2026



SIFATLI TA'LIM – YORQIN KELAJAK

ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARNOMASI

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE
PEDAGOGICAL INSTITUTE

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

TERDPI ILMIY XABARNOMASI

2026/ № 2



O'zR OAK ning 2025-yil 24-sentabrdagi
375/5-sonli qarori bilan milliy ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilgan

Termiz – 2026

ISSN: 3060-4761

Muassis:
Termiz davlat pedagogika instituti

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
Jurnal bir yilda bosma va elektron (o'zbek, rus, ingliz tillarida) shaklda chop etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 6-iyundagi № 303723-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan manba, ko'chirma, mazmun va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgar. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 26,25
Ofset bosma. Ofset qog'ozi.
Adadi: 100 nusxa
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma: 174
Tahririyat manzili: Termiz tumani "Yangiobod" MFY, At-Termiziy ko'chasi 1-A uy.
"TerDU bosmaxonasi"da chop etildi.
Bosmaxona manzili: Termiz shahri, A.Navoiy ko'chasi, 42 uy.

BOSH MUHARRIR:
Xasanov Azizbek, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Kuldasheva Shaxnoza, kimyo fanlari doktori (DSc), professor

TEXNIK MUHARRIR:
Qurbanov Abdimalik, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MAS'UL KOTIB:
To'rayev Ro'ziboy, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIR HAY'AT A'ZOLARI:
Bernd Müller-Jacquier,f.f.d, professor (Germaniya)
Ponomaryova Lyudmila, p.f.d, professor (Rossiya)
Gerasyov Aleksandr, p.f.d, professor (Rossiya)
Buligina Yelena, f..f.d, professor (Rossiya)
Eshmetov Izzat, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Abdikamalova Aziza, k.f.d, professor (O'zbekiston)
Salixanova Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Jumaeva Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Sagdullayeva Dilafruz, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Turamuratov Ulug'bek, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Norbo'tayev Xo'shboq, p.f.d,(DSc) professor (O'zbekiston)
To'rayev Rasul, f.m.f.n, professor (O'zbekiston)
Shamuratova Nagima, q.x.f.d. (DSc), professor (O'zbekiston)
Saidov Chorixon, f.m.f.d, professor (O'zbekiston)
Bozorov Lutfulla, k.f.d., (DSc) (O'zbekiston)
Mahmudov Yusup, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Xudoyqulov Xol, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Alimov Parda, f.f.d, professor (O'zbekiston)
Xoliqnazarov Begali, b.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Qodirov Baxtiyor, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Tojiyev Panji, t.f.d,(DSc), dotsent (O'zbekiston)
Qosimov Shavkat, PhD, professor (O'zbekiston)
Saidaxmatov Sharifbek, t.f.f.d., PhD,dotsent (O'zbekiston)
Xudoyberdiyev Shuxrat, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Umarov Aziz, PhD (O'zbekiston)
Abduraxmonov Eldor, k.f.d, ,(DSc), professor (O'zbekiston)
Shabbazova Dilfuza, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nuritdinova Xurshida, PhD (O'zbekiston)
Quvvatova Mohira, PhD (O'zbekiston)
Mardonova Lobar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nurmatov Norqobil, q.x.f.d, (DSc), professor (O'zbekiston)
Ismailov Botir, PhD, (O'zbekiston)
Sattorov Sardor, PhD (O'zbekiston)
Allamuradov Anvar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Kabilova Sayyora, PhD (O'zbekiston)
Ismailov Murodulla, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Eshmuradov Olmosbek, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Isayev Oybek, Phd (O'zbekiston)
Norliyev Rustam, f.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Berdiyeva Muhabbat, Phd, professor (O'zbekiston)
Shirnazarova Zamira, Phd,dotsent (O'zbekiston)
Narbasheva Mexri, p.f.n, professor (O'zbekiston)
Kuzimurotova Dinara, Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri (O'zbekiston)

ISSN: 3060-4761

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Хасанов Азизбек, доктор педагогических наук (DSc), профессор.

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА:
Кулдашева Шахноза, доктор химических наук (DSc), профессор

ТЕХНИЧЕСКИЙ РЕДАКТОР:
Курбанов Абдималик, доктор философии по техническим наукам (PhD)

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:
Тураев Рузибой, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:
Бернд Мюллер-Жакье, д.ф.н., профессор (Германия)
Пономарева Людмила, д.п.н., профессор (Россия)
Герасёв Александр, д.п.н., профессор (Россия)
Булыгина Елена, д.ф.н., профессор (Россия)
Эшметов Иззат, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Абдикамалова Азиза, д.к.н., профессор (Узбекистан)
Салиханова Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Джумаева Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Сагдуллаева Дилафруз, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Турамурадов Улугбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Норбутаев Хушбок, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Тураев Расул, к.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Шамуратова Нагима, д.с.н, профессор (Узбекистан)
Саидов Чорихон, д.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Бозоров Лутфулла, д.т.н. (Узбекистан)
Махмудов Юсуп, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Худойкулов Хол, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Алимов Парда, ф.ф.н, профессор (Узбекистан)
Халикназаров Бегали, к.б.н, доцент (Узбекистан)
Кодиров Бахтиёр, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Таджиев Панджи, д.т.н., доцент (Узбекистан)
Касимов Шавкат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Саидахматов Шарифбек, д.ф.и.н, доцент (Узбекистан)
Худойбердиев Шухрат, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Умаров Азиз, д.ф.п.н, (Узбекистан)
Абдурахманов Эльдор, д.х.н., профессор (Узбекистан)
Шаббазова Дилфуза, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Нуритдинова Хуршида, д.ф.п.н (Узбекистан)
Кувватова Махира, д.ф.п.н (Узбекистан)
Мардонова Лобар, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нурматов Норкабил, д.с.н., профессор (Узбекистан)
Исмаилов Ботир, д.ф.п.н (Узбекистан)
Сатторов Сардор, д.ф.п.н (Узбекистан)
Алламурадов Анвар, д.ф.п.н. доцент (Узбекистан)
Кабилова Сайёра, д.ф.ф.н, (Узбекистан)
Исмаилов Муродулла, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Эшмурадов Олмосбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Исаев Ойбек, д.ф.и.н (Узбекистан)
Норлиев Рустам, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бердиева Мухаббат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Ширназарова Замира, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нарбашева Мехри, к.п.н. профессор (Узбекистан)
Кузимуротова Динара, редактор редакционно-издательского отдела, (Узбекистан).

Основатель:
Термезский государственный педагогический институт

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

Журнал издается в печатном и электронном виде (на узбекском, русском, английском языках) в течение одного года.

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан свидетельством № 303723 от 6 июня 2024 года.

Авторы несут ответственность за достоверность источников, выдержек, содержания и информации, используемых в текстах. При копировании из журнала необходимо указывать источник.

Разрешение получено: 12.06.2026.
Размер бумаги: 70x85.
Печатная форма: 26,25.
Офсетная печать.
Офсетная бумага.
Количество: 100 экз.
Цена указана по договорённой цене.
Заказ: 174
Адрес редакции: Термезский район, «Янгиабад» МФМ, улица Ат-Термизи, дом 1-А.
Отпечатано в типографии «ТерГУ».
Адрес типографии: город Термез,улица А.Навоий, дом 42.

ISSN: 3060-4761

Founder:
Termiz State Pedagogical Institute

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL

The magazine is published in printed and electronic form (in Uzbek, Russian, English) in one year.

Registered by the Information and Mass Communications Agency under the Presidential Administration of the Republic of Uzbekistan with certificate No. 303723 dated June 6, 2024.

The authors are responsible for the accuracy of the sources, excerpts, content and information used in the texts. When copying from a journal, the source must be noted.

Permission to print: 12.03.2026
Paper size: 70x85
Printing plate: 26.25
Offset printing.
Offset paper.
Quantity: 100 copies
Price at the agreed price.
Order: 174
Editorial address: Termez district, «Yangiabad» MCK, At-Termiziy street, 1-A.
Printed at the "TerSU printing house". Address: Termez city, A.Navoiy street, 42.

THE EDITOR-IN-CHIEF:
Xasanov Azizbek, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Kuldasheva Shakhnoza, Doctor of Chemical Sciences (DSc), Professor

TECHNICAL EDITOR:
Qurbanov Abdimalik, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences

RESPONSIBLE SECRETARY:
Turaev Ruziboy, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:
Bernd Müller-Jacquier, Doctor of Philological Sciences, Professor (Germany)
Ponomaryova Lyudmila, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Gerasyov Aleksandr, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Buligina Yelena, Doctor of Philological Sciences, Professor (Russia)
Eshmetov Izzat, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Abdikamalova Aziza, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Salikhanova Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Jumaeva Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Sagdullayeva Dilafruz, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
To'ramuratov Ulug'bek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Norbo'tayev Xo'shboq, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
To'rayev Rasul, Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Shamuratova Nagima, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
Saidov Chorikhon, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Bozorov Lutfulla, Doctor of Technical Sciences (DSc), (Uzbekistan)
Mahmudov Yusup, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Khudoyqulov Khol, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Parda Alimov, Candidate of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Xoliqnazarov Begali, Candidate of Biological Sciences, Associate Professor, (Uzbekistan)
Qodirov Baxtiyor, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Tojiyev Panji, Doctor of Technical Sciences (DSc), Associate Professor (Uzbekistan)
Qosimov Shavkat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Saidakhmatov Sharifbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Khudoyberdiyev Shuxrat, PhD (Uzbekistan)
Umarov Aziz, PhD (Uzbekistan)
Abduraxmonov Eldor, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Shabbazova Dilfuza, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nuritdinova Khurshida, PhD (Uzbekistan)
Quvvatova Mohira, PhD (Uzbekistan)
Mardonova Lobar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nurmatov Norqobil, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Profess. (Uzbekistan)
Ismailov Botir, PhD (Uzbekistan)
Sattorov Sardor, PhD (Uzbekistan)
Allamuradov Anvar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Kabilova Sayyora, PhD, (Uzbekistan)
Ismailov Murodulla, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshmuradov Olmosbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Isayev Oybek, PhD (Uzbekistan)
Norliyev Rustam, Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Berdiyeva Muhabbat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Shirnazarova Zamira, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Narbasheva Mexri, Candidate of Psychological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Kuzimurotova Dinara, Editor, Editorial-Publishing Department (Uzbekistan)

SIFATLI TA'LIM – YORQIN KELAJAK
ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

UDK: 81.2/.4481.25
ORCID: 0000-0001-6394-295X

SOLIJONOV JO'RAALI KAMOLJONOVICH
Termiz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi,
f.f.f.d. (PhD)
E-mail: solijonov94@gmail.com

NAZMIY ELEMENTLAR TARJIMASI VA STRATEGIYALAR: QO'SHIQ, SHE'R VA TOPISHMOQLAR MISOLIDA

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada badiiy matn tarkibida uchraydigan nazmiy elementlar, xususan qo'shiq, she'r va topishmoqlarni ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda qo'llaniladigan strategiyalar lingvopoetik va funksional-pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi nazmiy elementlarni oddiy matn segmenti sifatida emas, balki badiiy asarning semantik, ritmik, obrazli va kommunikativ qatlamlarini birlashtiruvchi murakkab poetik birlik sifatida talqin qilishdan iborat. Maqolada nazmiy elementlar tarjimasida formal ekvivalentlik, dinamik ekvivalentlik, poetik rekonstruksiya, semantik kompensatsiya, ritmik moslashtirish, obrazli parafraz, madaniy adaptatsiya va funksional ekvivalentlik strategiyalarining imkoniyatlari yoritiladi.

KALIT SO'Z: *Nazmiy element, tarjima strategiyasi, poetik rekonstruksiya, lingvopoetika, qo'shiq tarjimasi, she'riy tarjima, topishmoq tarjimasi, ekvivalentlik, ritm, obrazlilik.*

ПЕРЕВОД ПОЭТИЧЕСКИХ ЭЛЕМЕНТОВ И СТРАТЕГИИ ИХ ПЕРЕДАЧИ: НА ПРИМЕРЕ ПЕСЕН, СТИХОТВОРЕНИЙ И ЗАГАДОК

АННОТАЦИЯ. В данной статье с лингвопоэтической и функционально-прагматической точек зрения рассматриваются стратегии перевода поэтических элементов, встречающихся в художественных текстах, в частности песен, стихотворений и загадок, с английского языка на узбекский. Основная цель исследования заключается в интерпретации поэтических элементов не как простых текстовых фрагментов, а как сложных поэтических единиц, объединяющих семантический, ритмический, образный и коммуникативный уровни художественного произведения. В статье анализируются возможности применения таких переводческих стратегий, как формальная эквивалентность, динамическая эквивалентность, поэтическая реконструкция, семантическая компенсация, ритмическая адаптация, образный парафраз, культурная адаптация и функциональная эквивалентность.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *поэтический элемент, переводческая стратегия, поэтическая реконструкция, лингвопоэтика, перевод песен, поэтический перевод, перевод загадок, эквивалентность, ритм, образность.*

TRANSLATION OF POETIC ELEMENTS AND TRANSLATION STRATEGIES: THE CASE OF SONGS, POEMS, AND RIDDLES

ABSTRACT. This article examines the translation strategies employed in rendering poetic elements occurring in literary texts, particularly songs, poems, and riddles, from English into Uzbek from a linguopoetic and functional-pragmatic perspective. The primary aim of the study is to interpret

poetic elements not merely as textual segments but as complex poetic units that integrate the semantic, rhythmic, figurative, and communicative layers of a literary work. The article explores the applicability of various translation strategies, including formal equivalence, dynamic equivalence, poetic reconstruction, semantic compensation, rhythmic adaptation, figurative paraphrase, cultural adaptation, and functional equivalence in the translation of poetic elements.

KEYWORDS: *poetic element, translation strategy, poetic reconstruction, linguopoetics, song translation, poetry translation, riddle translation, equivalence, rhythm, imagery.*

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

KIRISH. Badiiy tarjima nazariyasida nazmiy elementlar tarjimasi eng murakkab masalalardan biri sifatida qaraladi. Chunki bunday birliklar matnda faqat ma'no tashuvchi vosita emas, balki ohang, ritm, emotsional ta'sir, obrazlilik, madaniy kod va kompozitsion vazifani ham bajaradi. Nasriy matn ichiga kiritilgan qo'shiq, she'r, topishmoq, afsun, madh, marosimiy kuylov yoki ritmik nutq shakllari asarning umumiy poetik tizimini kengaytiradi. Shu sababli ularni tarjima qilishda faqat lug'aviy moslikka tayanish yetarli emas. Tarjimon mazmun, shakl, ritm, fonetik uyg'unlik, obrazlar tizimi, personaj nutqi va o'quvchi qabul qilish darajasini birgalikda hisobga olishi lozim.

Nazmiy elementlar, ayniqsa, bolalar adabiyoti, fentezi matnlari va mifopoetik asarlarda alohida funksional yuk ko'taradi. Ular ba'zan syujetni oldinga siljitadi, ba'zan personaj xarakterini ochadi, ba'zan esa asar olamiga xos madaniy, sehrli yoki ramziy muhitni yaratadi. Masalan, fentezi matnlarida she'riy parchalar ko'pincha bashorat, ogohlantirish, topishmoq, madh yoki marosimiy qo'shiq vazifasini bajaradi. Bunday parchalarni tarjima qilishda mazmunni saqlab qolish bilan birga, ularning o'quvchiga ko'rsatadigan estetik va psixologik ta'sirini ham qayta yaratish zarur.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, o'zbek tarjimashunosligida nazmiy elementlar tarjimasi ko'pincha she'riy tarjima doirasida umumiy o'rganilgan, ammo qo'shiq, she'r va topishmoqlarni alohida funksional tur sifatida ajratib, ularning tarjima strategiyalarini tizimli talqin qilish yetarli darajada shakllanmagan. Holbuki, bu uch tur bir-biriga yaqin bo'lsa-da, tarjimada turlicha mezonlarni talab qiladi. Qo'shiqda kuylanish imkoniyati va ritmik oqim, she'rda obraz va poetik ma'no, topishmoqda esa yashirin semantik belgi va javobga olib boruvchi mantiqiy mexanizm asosiy mezon bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METDOLARI. Tadqiqot sifat tahliliga asoslandi. Maqolada nazmiy elementlar tarjimasini o'rganish uchun qiyosiy-tipologik, lingvopoetik, struktur-semantik, funksional-pragmatik va tarjima transformatsiyasi tahlili metodlaridan foydalanildi. Qiyosiy-tipologik metod ingliz va o'zbek tillaridagi ritmik, sintaktik va semantik tafovutlarni aniqlashga xizmat qildi. Lingvopoetik metod nazmiy elementlarning badiiy matndagi obrazlilik, ohang, ritm, takror, alliteratsiya, qofiya va emotsional ta'sir kabi jihatlarini ochishga yo'naltirildi. Struktur-semantik metod qo'shiq, she'r va topishmoq tarkibidagi ma'no birliklari, kalit obrazlar va sintaktik qurilmalarni tahlil qilishda qo'llandi. Funksional-pragmatik metod esa nazmiy elementning matn ichida qanday vazifa bajarayotganini aniqlashga qaratildi.

Tadqiqotda nazmiy elementlar uch asosiy turga ajratildi: qo'shiq, she'r va topishmoq. Qo'shiq turi kuylanishga moyil, ritmik takrorlarga boy, jamoaviy yoki personaj nutqi bilan bog'liq nazmiy birlik sifatida belgilandi. She'r turi obrazli, emotsional va estetik vazifasi kuchli bo'lgan poetik birlik sifatida qaraldi. Topishmoq esa yashirin ma'no, mantiqiy ishora, semantik kod va javobni topishga qaratilgan intellektual poetik birlik sifatida baholandi.

Maqolada tarjima strategiyalari quyidagi mezonlar asosida tahlil qilindi: mazmunni saqlash, ritmni saqlash, qofiyani saqlash, obrazlilikni saqlash, madaniy moslashtirish, o'quvchi yoshiga moslashtirish, matn ichidagi funksiyani saqlash, ijro yoki o'qish tabiiyligini ta'minlash. Ushbu mezonlar asosida nazmiy elementlar tarjimasida qo'llanishi mumkin bo'lgan yetti asosiy strategiya ajratildi: literal tarjima, formal ekvivalentlik, dinamik ekvivalentlik, poetik rekonstruksiya, semantik kompensatsiya, madaniy adaptatsiya va funksional qayta yaratish.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, nazmiy elementlar tarjimasida matn turiga mos strategiya tanlash tarjima sifatini belgilovchi asosiy omildir. Qo'shiq, she'r va topishmoq shaklan bir-biriga yaqin bo'lsa ham, ularning tarjimadagi ustuvor mezonlari turlicha. Shu sababli bitta umumiy strategiyani barcha turdagi nazmiy elementlarga tatbiq etish ilmiy jihatdan yetarli emas.

Birinchi natija shuki, qo'shiq tarjimasida ritmik oqim va ijro tabiiyligi asosiy o'ringa chiqadi. Qo'shiq, odatda, ovoz chiqarib aytish, kuylash yoki guruh tomonidan takrorlashga mo'ljallangan bo'ladi. Shuning uchun qo'shiq tarjimasida sintaktik ixchamlik, urg'u joylashuvi, takrorlar tabiiyligi va ohangdorlik muhimdir. Agar tarjimon faqat ma'noni saqlasa, qo'shiqning kuylanish xususiyati yo'qolishi mumkin. Aksincha, faqat ritm saqlansa, semantik aniqlik pasayadi. Demak, qo'shiq tarjimasida dinamik ekvivalentlik va poetik rekonstruksiya uyg'unlashishi zarur.

Qo'shiq tarjimasida quyidagi strategiyalar samarali hisoblanadi: ritmik moslashtirish, qisqartirish, takrorni saqlash, sintaktik soddalashtirish, fonetik uyg'unlikni kuchaytirish va ijro qulayligini ta'minlash. Masalan, inglizcha matnda qisqa urg'uli so'zlar ketma-ketligi orqali yaratilgan ritm o'zbek tilida aynan ko'chirilmasligi mumkin. Bunday holatda tarjimon mazmunning asosiy yadrosini saqlagan holda, o'zbek tilidagi tabiiy qo'shiq ohangiga mos satr quradi. Bu jarayonda so'zma-so'zlikdan voz kechish tarjima xatosi emas, balki poetik zarurat sifatida baholanadi. Ikkinchi natija shuki, she'r tarjimasida obrazlilik, poetik ma'no va estetik ta'sir yetakchi o'rin tutadi. She'rda so'zlar faqat axborot bermaydi, balki badiiy tasavvur yaratadi. Shu bois

she'riy elementni tarjima qilishda metafora, ramz, epitet, alliteratsiya, takror, kontrast va intonatsion harakatni hisobga olish talab qilinadi. Ingliz tilidagi poetik obraz o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri ko'chirilganda tabiiy eshitilmasligi mumkin. Bunday vaziyatda obrazli parafraz va funksional ekvivalentlik strategiyalari samarali bo'ladi.

She'r tarjimasida tarjimon uch asosiy qatlamni saqlashga intiladi: semantik qatlam, poetik qatlam va emotsional qatlam. Semantik qatlam voqea yoki fikrning asosiy mazmunini bildiradi. Poetik qatlam ritm, qofiya, obraz va uslubiy vositalar orqali hosil bo'ladi. Emotsional qatlam esa o'quvchida paydo bo'ladigan kayfiyat bilan bog'liq. Ushbu uch qatlam bir vaqtda to'liq saqlanishi qiyin. Shuning uchun tarjimon matnning asosiy vazifasiga qarab ustuvorlik belgilaydi. Agar she'r syujet uchun zarur bashorat yoki ogohlantirish bo'lsa, semantik aniqlik ustun turadi. Agar she'r kayfiyat va muhit yaratishga xizmat qilsa, obrazlilik va ohang ustunlik qiladi.

Uchinchi natija shuki, topishmoq tarjimasida mantiqiy yashirinlik va javobga olib boruvchi semantik belgilar asosiy mezon hisoblanadi. Topishmoq oddiy she'r emas, balki o'quvchini fikrlashga majbur qiladigan poetik-intellektual birlikdir. Unda har bir obraz, belgi va sintaktik burilish javobni yashirish yoki unga yaqinlashtirish uchun xizmat qiladi. Shuning uchun topishmoq tarjimasida faqat ritm yoki qofiyani saqlash yetarli emas. Eng muhim vazifa topishmoqning yechilish mexanizmini saqlashdir.

Topishmoq tarjimasida uch turdagi xavf mavjud: birinchisi, javobning haddan tashqari ochilib qolishi. Bunda topishmoq poetik-intellektual vazifasini yo'qotadi. Ikkinchisi, javobga olib boruvchi belgilarning yo'qolishi. Bunda o'quvchi topishmoqni yecha olmaydi. Uchinchisi, madaniy obrazning tushunarsiz bo'lib qolishi. Bunday holatda tarjimon madaniy adaptatsiya yoki izohli kompensatsiyadan foydalanishi mumkin. Ammo topishmoqda ortiqcha izoh berish matnning o'yin xususiyatini susaytiradi. Shu sababli eng maqbul yo'l yashirin ma'noni o'zbek tilidagi tabiiy belgilar tizimi orqali qayta yaratishdir.

To'rtinchi natija shuki, nazmiy elementlar tarjimasida poetik rekonstruksiya eng mos umumiy strategiya sifatida namoyon bo'ladi. Chunki bu yondashuv shakl va mazmunning mexanik mosligini emas, balki asliyatdagi poetik ta'sirni tarjima tilida qayta yaratishni maqsad qiladi. Poetik rekonstruksiya jarayonida tarjimon asliyat matnini qisqartirishi, kengaytirishi, sintaktik tuzilmani o'zgartirishi, qofiyani almashtirishi yoki ritmni o'zbekcha ohangga moslashtirishi mumkin. Biroq bunday erkinlik mutlaq emas. U asliyatning semantik yadrosi, poetik vazifasi va uslubiy yo'nalishi bilan chegaralanadi.

Nazmiy elementlar tarjimasidagi asosiy muammo shakl va mazmun o'rtasidagi muvozanatdir. Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima jarayonida bu muvozanat yanada murakkablashadi. Chunki ikki tilning fonetik, morfologik va sintaktik imkoniyatlari bir xil emas. Ingliz tilida qisqa so'zlar, qat'iy urg'u tizimi va sintaktik ixchamlik ko'p hollarda ritmik tezlik yaratadi. O'zbek tilida esa qo'shimchalar, so'z tartibining nisbatan erkinligi va ohangdor cho'zilish imkoniyati mavjud. Shu bois inglizcha nazmiy matnning ritmi o'zbek tilida aynan takrorlanmasa ham, unga mos badiiy ta'sir hosil qilish mumkin.

Qo'shiq tarjimasida esa asliyatdagi metrik tuzilmani to'liq saqlash doimo talab qilinmaydi. Muhimi, tarjima matni qo'shiq sifatida ishlay olishi kerak. Agar satr uzunligi, urg'u joylashuvi va takrorlar kuylashga xalaqit bersa, tarjima mazmunan to'g'ri bo'lsa ham, funksional jihatdan muvaffaqiyatli bo'lmaydi. Shuning uchun qo'shiq tarjimasida fonetik yengillik, unli tovushlar uyg'unligi, satr oxirlarining tabiiy ohangi va talaffuz qulayligi alohida ahamiyatga ega.

She'r tarjimasida esa masala nisbatan kengroq. She'r kuylanishi shart emas, ammo o'qilganda estetik ta'sir berishi zarur. Bu yerda tarjimon poetik obrazni saqlash yoki uni o'zbek tilida ekvivalent obraz bilan almashtirish masalasiga duch keladi. Masalan, ingliz tilidagi ayrim obrazlar o'zbek o'quvchisida kutilgan poetik taassurotni uyg'otmasligi mumkin. Bunday holatda tarjimon obrazni aynan saqlashdan ko'ra, uning badiiy vazifasini saqlashga intilishi kerak. Bu yondashuv Venuti ilgari surgan begonalashtirish va mahalliylashtirish tamoyillari o'rtasidagi muvozanat bilan bog'liq. Agar asliyatdagi begona obraz asar olamining o'ziga xosligini bildirsa, uni saqlash maqsadga muvofiq. Agar u tarjima o'quvchisi uchun poetik ta'sir bermasa, ehtiyotkorlik bilan moslashtirish zarur.

Topishmoq tarjimasida esa semantik mexanizmni saqlash birinchi o'rinda turadi. Topishmoqning asosiy vazifasi o'quvchini javob tomon yo'naltirish, ammo javobni darhol oshkor qilmaslikdir. Shu sababli topishmoq tarjimasida so'z o'yini, ko'p ma'nolilik, metaforik ishora va yashirin mantiq alohida ahamiyatga ega. Agar asliyatdagi so'z o'yini o'zbek tilida ishlamasa, tarjimon yangi so'z o'yini yaratishi mumkin. Bunday holatda tarjima asliyatdan shaklan uzoqlashadi, ammo funksional jihatdan unga yaqinlashadi.

Maqolada ilgari surilgan yondashuvlardan kelib chiqib, nazmiy elementlar tarjimasi uchun quyidagi strategik modelni taklif qilish mumkin. Birinchi bosqichda nazmiy element turi aniqlanadi. U qo'shiqmi, she'rmi yoki topishmoqmi. Ikkinchi bosqichda uning matn ichidagi vazifasi belgilanadi. U syujetga xizmat qiladimi, kayfiyat

yaratadimi, personaj xarakterini ochadimi yoki o'quvchini intellektual o'yinga jalb qiladimi. Uchinchi bosqichda ustuvor tarjima mezoni tanlanadi. Bu mezon ritm, obraz, mazmun, yashirin mantiq yoki ijro qulayligi bo'lishi mumkin. To'rtinchi bosqichda strategiya belgilanadi. Bunda poetik rekonstruksiya, semantik kompensatsiya, ritmik moslashtirish, madaniy adaptatsiya yoki funksional qayta yaratishdan biri tanlanadi. Beshinchi bosqichda tarjima matni o'zbek tilining tabiiy poetik me'yorlari asosida tekshiriladi. Bu model nazmiy elementlar tarjimasiga mexanik emas, balki funksional yondashishni ta'minlaydi. Chunki tarjima jarayonida har bir satrning shakli emas, balki uning badiiy vazifasi ham hisobga olinadi. Aynan shu jihat nazmiy elementlar tarjimasini oddiy leksik almashinuvdan farqlaydi.

Nazmiy elementlar tarjimasining yana bir muhim jihati auditoriya masalasidir. Bolalar adabiyoti, fentezi matnlari yoki ommaviy adabiyotdagi she'riy parchalar ko'pincha turli yoshdagi o'quvchilar uchun mo'ljallangan bo'ladi. Bunday matnlarda ortiqcha murakkablik, sun'iy arxaizm yoki og'ir sintaktik qurilmalar tarjima ta'sirini kamaytirishi mumkin. Shu bois o'zbek tilidagi tarjima ravon, esda qolarli va tabiiy bo'lishi kerak. Ayniqsa, topishmoq va qo'shiqlarda qisqa satrlar, ohangdor birliklar va sodda sintaktik shakllar samarali natija beradi.

Shu bilan birga, soddalik badiiylikdan voz kechish degani emas. Nazmiy element tarjimasida soddalik poetik aniqlik bilan uyg'un bo'lishi lozim. Tarjimon asliyatdagi murakkab obrazni haddan tashqari oddiylashtirib yuborsa, matnning estetik qiymati pasayadi. Aksincha, tarjimada ortiqcha bezak va sun'iy poetiklashtirish kuchaysa, asliyatdagi tabiiy ohang buziladi. Demak, tarjimonning vazifasi asliyatga qaram bo'lib qolish emas, balki asliyatning poetik vazifasini tarjima tilida tabiiy qayta yaratishdir.

XULOSA. Nazmiy elementlar tarjimasi badiiy tarjimaning eng murakkab va mas'uliyatli yo'nalishlaridan biridir. Qo'shiq, she'r va topishmoqlar tarjimasida mazmun, shakl, ritm, obrazlilik, madaniy kod va pragmatik ta'sir birgalikda namoyon bo'ladi. Shu sababli bunday birliklarni tarjima qilishda oddiy literal yondashuv yetarli emas. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, har bir nazmiy element turi o'ziga xos strategik yondashuvni talab qiladi.

Qo'shiq tarjimasida ritmik moslik, ijro qulayligi va takrorlarning tabiiyligi ustuvor bo'ladi. She'r tarjimasida obrazlilik, emotsional ta'sir va estetik ohang muhim o'rin tutadi. Topishmoq tarjimasida esa yashirin mantiq, javobga olib boruvchi semantik belgilar va o'quvchini fikrlashga undovchi poetik mexanizm saqlanishi kerak. Ushbu uch turdagi farqlar nazmiy elementlar tarjimasida yagona universal usul emas, balki turga mos strategiyalar tizimi zarurligini ko'rsatadi.

Kelgusida mazkur mavzu doirasida ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shiq, she'r va topishmoq tarjimalarining keng korpusini tuzish, ularni ritmik, fonetik, semantik va pragmatik ko'rsatkichlar asosida statistik tahlil qilish, shuningdek, nazmiy elementlar tarjimasi uchun alohida lingvopoetik strategiyalar tasnifini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bu esa badiiy tarjima nazariyasini boyitish bilan birga, amaliy tarjimonlar uchun ham metodik asos vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Nida E.A. Toward a Science of Translating. Leiden: Brill, 1964.
2.Holmes J.S. Translated Papers on Literary Translation and Translation Studies. Amsterdam: Rodopi, 1988.
3.Klingberg G. Children's Fiction in the Hands of the Translator. Lund: CWK Gleerup, 1986.
4.Lathey G. Translating Children's Literature. London and New York: Routledge, 2016.
5.Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent: O'qituvchi, 1978.
6.Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: Fan, 2005.
7.Jo'rayev K. Tarjima san'ati. Toshkent: Fan, 1982.
8.Shirinova R. Badiiy tarjimada olam milliy manzarasi. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. Toshkent,
9.Solijonov J.K. Fentezi matnlar tarjimasining lingvo-perspektiv tahlili (J.K. Rouling asarlari tarjimasi asosida). Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. Termiz, 2026.